

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent shahridagi Turin Politehnika
universiteti rektori



O.A.To‘ychiyev

“ 11 ” mart 2024 y

**Toshkent shahridagi Turin politehnika universiteti hududidagi stadion
tribunasini va yugurish yo‘lakchasini kapital ta‘mirlash hamda
stadion tribunasiga soyabon qurish uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ**

№	Asosiy ma‘lumotlar va talablar	Mazmuni
1	Buyurtmachi	Toshkent shahridagi Turin politehnika universiteti. 100095. Toshkent sh, Olmazor tumani, Kichik halqa yo‘li 17-uy. www.info@polito.uz Tel/faks: 71-246-70-82
2	Loyihani amalga oshirish uchun asos	Universitet kengashi qarori
3	Loyihani moliyalashtirish manbaasi	Universitet mablag‘lari
4	Ob‘yektning taxminiy qiymati	930 000 000 (to‘qqiz yuz o‘ttiz million) so‘m
5	Loyiha tashkiloti	MChJ “ENGINEERING MIR-ROSSO”
6	Qurilish ishlari boshlanishi va tugash muddatlari	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 1 oy
7	Qurilish ishlarini bajarishdagi xavfsizlik talablari	<p>Qurilish ishlarini bajarishdagi barcha me‘yoriy normalarga amal qilinishini ta‘minlash. Ish jarayonida texnika xavfsizligi, yong‘in xavfsizligi, mehnat xavfsizligi va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash bosh pudratchi tashkilot zimmasiga yuklatiladi hamda javobgar shaxs buyruq orqali belgilanadi va buyruq nusxasi buyurtmachiga taqdim etiladi.</p> <p>Bosh pudratchi shartnoma imzolanganiga qadar qurilish ishlari davomida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan baxtsiz yoki favqulodda holatlardan sug‘urtalanganligi to‘g‘risida shartnoma nusxasini taqdim etishi shart.</p> <p>Bosh pudratchi qurilish ishlari boshlangunga qadar mehnat muhofazasi, favqulodda holat yuz berganda amalga oshiriladigan ishlar bajarilishi bo‘yicha dastur ishlab chiqishi va uni buyurtmachiga taqdim etishi shart.</p>
8	Ob‘yektning murakkablik toifasi	1- toifa
9	Qurilish montaj ishlarining nazorati va yakunlangan ishlarni topshirish bo‘yicha talablar	<p>Bosh pudratchi tashkilot rahbarlari:</p> <ul style="list-style-type: none">- Qo‘llanilayotgan barcha qurilish materillarini sifat nazoratidan o‘tkazish;- Bajarilayotgan ishlar sifatini bevosita qurilish maydonchasidan nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish;- Qurilish montaj ishlarini texnologik jihatidan to‘g‘ri tashkil etish;- Yakunlangan ishlar dalolatnomasini o‘z vaqtida rasmiylashtirish;- Bajarilgan ishlar bo‘yicha ijro hujjatlarini o‘z vaqtida to‘ldirib borish;- Qurilish montaj ishlarini o‘zaro tasdiqlangan grafik asosida bajarilishini ta‘minlash;

		<p>- Loyiha smeta hujjatlarida ko'rsatilmagan ishlar bajarilganda dalolatnoma tuzish va ish hajmi alohida hisoblash.</p> <p>Bajarilgan ishlarni qabul qilish buyurtmachi tasdiqlagan komissiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va KMK, SHNK normalari asosida amalga oshiriladi va zaruriy barcha dalolatnomalar orqali tasdiqlanadi.</p>
10	Qurilish ishlarni moliyalashtirish	<p>Shartnoma tuzilgan sanadan so'ng shartnomada ko'rsatilgan muddatda 30% miqdorda avans to'lab beriladi. 65% to'lov bajarilgan ishlarning miqdoriga mos ravishda, bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan dalolatnomalar to'liq imzolangan holatda to'lab boriladi. Qolgan 5% to'lov ob'ektning ekspluatatsiya kafolat muddati tugagandan so'ng to'lab beriladi.</p>
11	Ob'yektni topshirish muddati va ishlarni sifatli bajarishga bo'lgan talablar	<p>Barcha qurilish montaj ishlari loyiha smeta hujjatlari, qurilish normalari va qurilish ishlarini olib borish qoidalariga qat'iy amal qilgan holda bajariladi.</p> <p>Ob'yektning texnologik kartasi Bosh pudratchi tomonidan tuziladi va unga qurilish davomida amal qilinishi ta'minlanadi.</p> <p>Bosh pudratchi tomonidan qurilish montaj ishlarini bajarish jarayonida ob'yektga moddiy zarar yetkazilgan taqdirda, Buyurtmachi va Bosh pudratchi o'rtasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida 3 (uch) ish kuni ichida dalolatnoma tuziladi.</p>

Bosh muhandis



I.Eshmuratov